



# IJTIMOY TARMOQDAGI YOZISHMALARDА UCHRAYDIGAN IMLOVIY XATOLAR

*Noiba To'xtaboyeva*

*ToshDO 'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

[noibatohtaboyeva@gmail.com](mailto:noibatohtaboyeva@gmail.com) /

**Annotatsiya :** Mazkur maqola ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalarda uchraydigan imloviy xatolar va ularning oldini olish usullari haqida bat afsil ma'lumot beradi. Yozishmalarda yuzaga keladigan imloviy xatolar, ko'pincha tez yozish, noto'g'ri so'z va iboralardan foydalanish, avtomatik to'g'rilash tizimlarining cheklovlar kabi omillar bilan bog'liqdir. Maqolada imloviy xatolarni kamaytirish uchun tizimli metodik tavsiyalar, jumladan, imloviy qoidalarni o'r ganish, avtomatik to'g'rilash vositalaridan foydalanish, matnni qayta tekshirish va yozish madaniyatini yaxshilash kabi amaliy usullar taqdim etilgan. Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqda xatosiz va aniq yozish uchun foydalanuvchilarga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** imloviy xatolar, ijtimoiy tarmoq, yozishmalar, imlo qoidalari, avtomatik to'g'rilash, yozish madaniyati, metodik tavsiyalar, grammatik xatoliklar, matnni tekshirish, tilni o'r ganish.

**Annotatsion:** This article provides detailed information about spelling errors encountered in social media messages and ways to prevent them. Spelling errors are often related to fast writing, incorrect use of words and expressions, and the limitations of automatic correction systems. The article presents systematic methodological recommendations for reducing spelling errors, including learning spelling rules, using automatic correction tools, proofreading, and improving writing culture. This article offers practical advice for social media users seeking to write effectively and accurately.



**Keywords:** spelling errors, social media, messages, spelling rules, automatic correction, writing culture, methodological recommendations, grammatical errors, proofreading, language learning.

**Аннотация:** Статья подробно рассматривает орфографические ошибки, встречающиеся в сообщениях в социальных сетях, и способы их предотвращения. Орфографические ошибки часто связаны с быстрым написанием, неправильным использованием слов и выражений, а также ограничениями автоматических систем исправления. В статье представлены методические рекомендации для снижения орфографических ошибок, включая изучение орфографических правил, использование автоматических средств исправления, повторную проверку текста и улучшение культуры письма. Эта статья предоставляет практические рекомендации для пользователей социальных сетей, стремящихся к эффективному и точному письму.

**Ключевые слова:** орфографические ошибки, социальные сети, сообщения, орфографические правила, автоматическое исправление, культура письма, методические рекомендации, грамматические ошибки, проверка текста, изучение языка.

Ijtimoiy tarmoqning rivojlanishi va uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. Hozirgi kunda *Facebook*, *Instagram*, *Twitter* kabi platformalar orqali odamlar bir-biriga o‘z fikrlarini tezda va osongina yetkazish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqda matnli yozishmalar hamda xabarlar orqali fikr almashish, yangiliklar tarqatish va hamkorlik qilish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan imloviy xatolar ham muhim muammolardan biridir. Imloviy xatolar nafaqat tilni bilish darajasini aks ettiradi, balki odamlarning muloqotdagi samaradorligiga ham ta’sir qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez yuzaga keladigan imloviy xatoliklar, qisqacha va tez yozish jarayonlari natijasida sodir bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqda yozishmalar o‘ziga xos tezlik, qisqartirilgan so‘zlar va noaniq grammatik qurilmalar bilan ajralib turadi. Odamlar ko‘pincha boshqa muloqotlarni o‘z vaqtida o‘qib chiqish va tez javob berish uchun


qisqa va aniq xabarlar yuborishga harakat qilishadi. Shu bilan birga, matnning qisqaroq bo‘lishi imloviy xatolar qilish ehtimolini oshiradi.

Tezlik va qisqa matnlar xatolar ko‘p ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar tez-tez qisqa, ko‘p hollarda to‘liq grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lgan xabarlar yozadilar. Bu holat matnning tez yozilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zan yozishmalarda imloviy xatolar yuzaga keladi.

Nutq va yozuv uslubidagi xatolar matn mazmunini tushunishga xalaqt beradi. Har bir shaxs ijtimoiy tarmoqda o‘ziga xos uslubda yozadi, ba’zan esa bu uslub grammatik jihatdan noto‘g‘ri yoki noaniq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yozilgan xabarlar ko‘pincha noto‘g‘ri bo‘ladi, lekin bu holat yozuvchi tomonidan shunchaki tez yozish istagi yoki muloqotning noformal xarakteri bilan izohlanadi.

*Imloviy xatolar va ularning turlari* ga quyidagilar kiradi:

- 1) Harfdagi xatolar: “**sh**” harfining “**w**” ko‘rinishida yozilishi, “**ch**” harfining “**4**” yozilishi, “**x**” va “**h**” harflarining almashtirib qo‘llanilishi xatolar.
- 2) So‘z vca grammatik xatolar: Bular eng oddiy va tez-tez uchraydigan xatolardir. Masalan, “**bitta**” o‘rniga “**bita**”, “**yaxshi**” o‘rniga “**yaxi**” yoki “**yahshi**” kabi holatlar kuzatiladi.
- 3) Imlo belgilari: Apostrof, vergul, nuqta kabi imlo belgilari noto‘g‘ri qo‘llanilishi ham xatoliklarga olib keladi. Misol uchun, bir nechta fikrni ajratishda vergul yoki nuqta ishlatilmaydi, bu esa matnni tushunishni qiyinlashtiradi.



Tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yozishuvda:



1. “Lekin” so‘zining “lk” tarzida qo‘llanilishi, “o‘xshagan edingiz” so‘zi o‘rnida “oxwodz” so‘zining qo‘llanilishi (uslubiy xato);
2. “qizga” so‘zining “qzga” tarzida, “oxshodz” hamda “adawbmanda” so‘zida “sh” o‘rniga “w” ning qo‘llanilishi, bundan tashqari “adawbmanda” so‘zida “i” harfining tushib qoldirishi (imloviy xato);
3. “adawbmanda” so‘zida **-da** yuklamasining qo‘shilib yozilishi (ishoraviy xato) kabi xatolar uchraydi.

*Ijtimoiy tarmoqda imloviy xatolarga uchrashish asosiy sabablari qanday yuzaga keladi?*

Imloviy xatoliklar bir qancha sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

1. O‘zgaruvchan tezlikda muloqot: Ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez xabarlar almashiladi va bu holat yozishmalarning sifatini yomonlashtirishi mumkin.
2. Ta’lim va madaniyat farqlari: Turli hududlardan yoki turli ijtimoiy guruhlardan bo‘lgan foydalanuvchilar o‘zlariga xos yozish uslublarini qo‘llashadi, bu esa imloviy xatolarga olib kelishi mumkin.

Imloviy xatolar faqat matnni tushunish qiyinchiliklarini keltirib chiqarish bilan qolmay, balki odamning ijtimoiy obro‘siga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xatolar shuningdek, professional va rasmiy muloqotda noxush taassurot qoldirishi mumkin. Imloviy xatolarni tuzatish va oldini olishda turli metodik tavsiyalar mavjud. Bu usullarni qo‘llash, ijtimoiy tarmoqda yozishmalarni yanada samarali va tushunarli qilishga yordam beradi. Imloviy xatolarni oldini olish uchun tilni o‘rganish, avtomatik to‘g‘rilash vositalaridan foydalanish, matnni tekshirish va yozish madaniyatini rivojlantirish zarurdir.

*Imloviy qoidalarni o‘rganish va muntazam ravishda takrorlash xatolarga yo‘qo‘ymaslikka yordam beradimi? Imloviy xatolarni oldini olish uchun, birinchi navbatda, tilning imloviy qoidalarni yaxshi bilish zarur. Ijtimoiy tarmoqda doimiy ravishda yozish bilan bog‘liq xatolar ko‘pincha bu qoidalarga e’tibor bermaslikdan kelib chiqadi.*



*Grammatikani o‘rganishning qaqnchalik ahamiyati bor?* O‘zbek tilining grammatikasi va imlosi haqida chuqurroq bilim olish imloviy xatolarni kamaytiradi. Kitoblar, maqolalar, ilmiy va jurnalistik matnlar yordamida tilning imloviy qoidalarini o‘rganish mumkin.

*Onlayn resurslar qanchalik yordami bor?* Internetda o‘zbek tilidagi imloviy qoidalarni o‘rganishga yordam beradigan turli onlayn kurslar, darsliklar va video darsliklar mavjud. Bu resurslardan foydalanish imloviy xatolarni aniqlashda va tuzatishda samarali hisoblanadi.

*Qisqartmalarni ehtiyyotkorlik bilan ishlatishning ahamiyati bormi?* Har bir qisqartma yoki so‘zning to‘liq shaklini yozishga harakat qilish kerak. Misol uchun, “kerak” o‘rniga “kk” ni yozish, yoki “salom” o‘rniga “salam” kabi oddiy xatolardan saqlanish lozim.

*Sinonimlar va iboralarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati bormi?* Ba’zan noto‘g‘ri sinonim ishlatish yoki so‘zning ma’nosini noto‘g‘ri talqin qilish ham xatoliklarga olib keladi. Shuning uchun so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini va kontekstini bilish muhimdir.

*Avtomatik to‘g‘rilash vositalaridan foydalanishning ahamiyati-chi?* Ba’zi platformalar (*masalan, Instagram, Facebook, Telegram*) foydalanuvchining yozgan matnni avtomatik ravishda tekshiradi. Bu tizimlar yordamida matndagi imloviy xatolar ko‘rib chiqilib, to‘g‘rulanishi mumkin.

*To‘g‘ri yozishni o‘rgatuvchi ilovalardan foydalanish-chi?* Yozish tili va imloviy xatolarni tahlil qiluvchi ilovalar (*masalan, Grammarly yoki boshqa onlayn dasturlar*) yozishda yordam beradi. Bunday vositalar ijtimoiy tarmoqda tez va samarali yozish uchun foydalidir.

*Matnni qayta tekshirish-chi?* Yozish jarayonida yuzaga kelgan imloviy xatoliklarni tuzatishning eng oddiy va samarali usullaridan biri – yozgan matnni qayta tekshirishdir. Yozishdan so‘ng matnni yana bir bor o‘qib chiqish, hatto bir necha marta. Bu usul, eng oddiy xatolarni aniqlashga yordam beradi.



*Yozgan matnni ovoz chiqarib o‘qishning foydasi bormi?* Ovoz chiqarib o‘qish ham matndagi grammatik va imloviy xatolarni aniqlashga yordam beradi. Ba’zan biron bir xato matnni ovoz chiqarib o‘qiganda aniq seziladi.

*Tez yozishning oldini olishning foydasi bormi?* Ijtimoiy tarmoqda odamlar tezda javob yozishga odatlangan bo‘lishi mumkin, bu esa imloviy xatolarni keltirib chiqaradi. Yozishdan oldin bir necha soniya to‘xtash, matnni yaxshi o‘ylab yozish xatolarning oldini olishga yordam beradi.

*Vaqt ajratishning o‘rnining ahamiyati qanday?* Yozishdan avval bir necha soniya yoki daqiqa vaqt ajratish va matnni o‘ylab yozish xatolarni kamaytiradi.

*Kompaniya va korporativ muloqotda to‘g‘ri yozish kerakmi?* Agar siz ijtimoiy tarmoqda kompaniya nomidan yoki professional muhitda yozayotgan bo‘lsangiz, tez yozishdan ko‘ra matnni yaxshilab tekshirish va tayyorlash kerak.

*Tillarni o‘rganish va boshqa tillarni tushunishning ahamiyati qancha?* Ijtimoiy tarmoqda yozishmalarda ba’zan boshqa tillardan olingan so‘zlar yoki ifodalar ishlatiladi. Bu esa ba’zan imloviy xatolarga olib kelishi mumkin.

*O‘zbek tilining normativ qoidalariga e’tibor qaratishni lozim deb o‘ylaysizmi?* Boshqa tillardan keltirilgan so‘zlar, iboralar yoki terminlar o‘zbek tilining imloviy qoidalariga mos bo‘lishi kerak. Bu yozishmalarda aniq va to‘g‘ri tilni ishlatishga yordam beradi.

*Xalqaro so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishni bilish zarurmi?* Global ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqa tillarda ishlatiladigan so‘zlar yoki iboralarning o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjimasi va ishlatilishini o‘rganish zarur.

*Sotsial tarmoqda yozish madaniyatini shakllantirishni amalga oshirish lozim deb o‘ylaysizmi?* Ijtimoiy tarmoqda yozish madaniyati muhim omil hisoblanadi. Yozishmadagi xatolarni kamaytirish uchun foydalanuvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish va ularni yozish madaniyatiga qo‘sish kerak. Yozish madaniyatini shakllantirish, imloviy xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi. Foydalanuvchilarni to‘g‘ri va madaniy yozishga o‘rgatish, bu jarayonning asosiy bosqichlaridan biridir.

*Ijtimoiy tarmoq platformalarining imkoniyatlaridan foydalanish zarurmi?* Ijtimoiy tarmoq platformalarida, ko‘pincha matnni yaxshilash va imloviy xatolarni



tuzatish uchun mo‘ljallangan vositalar mavjud. Ularni doimiy ravishda ishlatish foydalidir.

Imloviy xatolarni tuzatish va oldini olish bo‘yicha metodik tavsiyalarni amalgalash, ijtimoiy tarmoqda yozishmalarni aniqlash, tushunarli va samarali qilishga yordam beradi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan va unda fikr almashish, muloqot qilish, o‘zgarishlarga moslashish juda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir yozishmada til qoidalariga rioya qilish, nutq madaniyatini yuqori darajada saqlash lozimdir. Birinchi navbatda, tilni o‘rganish va imloviy qoidalarni bilish, xatolarni kamaytirishning asosiy vositasidir. O‘zbek tilining grammatikasi va imlosi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, yurtimizda va xorijda nashr etilgan ilmiy va badiiy asarlar, maqolalar, darsliklar yordamida amalgalashdir. Til o‘rganishning onlayn platformalar orqali kengaytirilishi, texnologiyalarning foydalanuvchilar uchun yanada samarali xizmatlar taqdim etishi, imloviy xatolarni aniqlash va tuzatishga imkon yaratadi. Xulosa qilib aytganda, imloviy xatolarni tuzatish va oldini olish uchun o‘rganish, qayta tekshirish, to‘g‘ri so‘z tanlash, yozish madaniyatini rivojlantirish va texnologiyalarni samarali qo‘llash juda muhimdir. Bu metodik tavsiyalarni amaliyatga tatbiq qilish orqali, ijtimoiy tarmoqda yozishmalar yanada aniqlash va tushunarli bo‘lib, foydalanuvchilar o‘rtasida samarali muloqot va fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy tarmoqdagi axborot oqimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduazizov A. Tilimizga loqayd bo‘lmaylik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2013-yil 4-son.
2. To‘rayeva D. “Tilshunoslikda shaxsiy yozishmalarning lingvistik tadqiqi”. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent. 2022, 305-310-b.
3. To‘rayeva D. “Shaxsiy yozishmalarda vulgar so‘zlar va lingvistik ekspertiza”. Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya. 01.2021. 212-215-b.



4. Dilnoza Axatova. “Ijtimoiy tarmoqlarda yo‘l qo‘yiladigan imlo xatolari ustida ishslash”. “Lingvodidaktikaning dolzARB masalalari” xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent. 2022, 134-137-b.